

ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Ilhomova Gulbahor Sherali qizi,

ToshDO'TAU OTAT fakulteti 3-kurs talabasi

Annotation: Maqolada zamonaviy pedagogika talablariga muvofiq ona tili darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritiladi. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar til kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli vositalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, darsda turli o'yin va og'zaki so'rovlardan foydalanish, rasmlarga qarab gap tuzish, qiziqarli test savollariga javob topish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki mashg'ulotning qiziqarli kechishiga sabab bo'lishi misollar yordamida keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, metodika, raqamli pedagogika, til kompetensiyasi, interfaol metodlar.

Abstract: The article discusses the role and importance of an innovative approach in organizing native language lessons in accordance with the requirements of modern pedagogy from a scientific, theoretical and practical perspective. In particular, interactive methods, digital tools and modern pedagogical technologies are analyzed as effective tools for improving the quality of education and developing students' language competence. It is also widely shown with the help of examples that the use of various games and oral questions in the lesson, making sentences based on pictures, finding answers to interesting test questions, analyzing problem situations not only increases the effectiveness of the lesson, but also makes the lesson more interesting.

Keywords: native language, innovation, educational technology, methodology, digital pedagogy, language competence, interactive methods.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и значение инновационного подхода в организации уроков родного языка в соответствии с требованиями современной педагогики как в научном, так и в практическом плане. В частности, анализируются интерактивные методы, цифровые инструменты и современные педагогические технологии как эффективные инструменты повышения качества образования и развития языковой компетенции учащихся. Также широко поясняется с помощью примеров, что использование на уроке различных игр и устных вопросов, построение предложений по картинкам, нахождение ответов на интересные тестовые вопросы, анализ проблемных ситуаций не только повышает эффективность урока, но и делает его более интересным.

Ключевые слова: родной язык, инновации, образовательные технологии, методика, цифровая педагогика, языковая компетенция, интерактивные методы.

Globallashuv jarayonida har bir millat o‘z tili va madaniyatini saqlash, rivojlantirish uchun ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratmoqda. O‘zbek tilining davlat tili sifatida mustahkam o‘rin egallashi, uning ta’limda to‘laqonli o‘rganilishi va o‘rgatilishi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tili fanining o‘qitilish uslubini takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylangan.

Ta’limda innovatsion yondashuv haqida fikr yuritar ekanmiz, akademik A. Abduqodirov quyidagicha ta’kidlaydi:

“Innovatsiya — bu ta’lim jarayoniga yangicha qarash, zamonaviy usullarni joriy qilish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir”.

Innovatsion yondashuv — bu ta’lim mazmuni va shaklini tubdan yangilash, o‘quvchilarining shaxsiy faoliyatini rag‘batlantirish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish demakdir. Pedagogika fanida bu yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy “bilim beruvchi – bilim oluvchi” munosabatini “faoliyatdagi hamkorlik” shakliga o‘zgartirishni ko‘zda tutadi. Ona tili fanining xususiyati shundaki, u orqali o‘quvchilarda til bilimi bilan birga nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash, bayon etish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois, quyidagi innovatsion metodlar aynan ona tili darslarida yuqori samara beradi:

-Klaster usuli — mavzuga oid tushunchalarni guruhlash va bog‘lash orqali tafakkurni rivojlantiradi;

-Insert texnologiyasi — o‘quvchi o‘qigan ma’lumotni qay darajada tushunganini aniqlashga imkon beradi;

-Kamolot texnologiyasi — mustaqil fikr, estetik did va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi;

“Aqliy hujum”, “Debat”, “Case-study” kabi interfaol metodlar esa o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va dalillash madaniyatini oshiradi.

Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda o‘quvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib o‘quvchilar aqliga hujum qilinadi, o‘quvchilarda fikr va g‘oyalalar tug‘iladi. Bu fikr va g‘oyalarni umumlashtirib, yagona, to‘g‘ri xulosa chiqariladi.

Professor **Sh. Turdiyev** ta’kidlaganidek: “Bugungi dars o‘quvchining shaxsiy faoliyatiga tayanishi, uni subyekt sifatida shakllantirishni ko‘zda tutishi bilan qadrlidir”.

Innovatsion darslar ta’limni raqamlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan:

- Quizlet, Kahoot, Wordwall kabi ilovalar orqali til qoidalarini mustahkamlash, mini testlar o‘tkazish mumkin;

- Padlet, Mentimeter, Jamboard platformalari esa guruhiy ishlarda interfaollikni oshiradi;

- Google Classroom, Moodle tizimlari esa masofaviy ta’limda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabalarida olib borilgan eksperiment asosida, innovatsion metodlar qo‘llangan guruhda o‘zlashtirish darajasi 18 foizga yuqori bo‘lgani aniqlangan. Talabalar o‘z fikrini erkin ifoda eta olish, mantiqiy tahlil qilish, matn bilan ishslash ko‘nikmalarini ancha mukammallashtirgan.

Darslarni innovation texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o‘qituvchi innovation faoliyat yuritgandagina ta’lim mazmuni o‘zgaradi. O‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili darslariga interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi muammo o‘zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o‘rtasi bo‘lib, bunda muammoning dolzarbliji va o‘ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg‘ulotda o‘qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi. Muommlni ta’lim interfaol usulidan foydalanib, o‘quvchilarga o‘tilgan mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlarini so‘radik. Masalan, quyidagi

muammoli vaziyat yuzaga keldi. Gaplarda tushib qolgan kim? va nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topib, nuqtalar o‘rniga qo‘ying, gaplarni ko‘chiring.

1. O‘quvchilarni sevib o‘qishadi.
2.g‘o‘zaga suv quymoqda .
3. Oshpaz qozonga gurunchni solib, ..ni damladi.
4.mashinani tez haydab ketdi.
5. Bog‘dan gullar uzib ,yasadim.

O‘quvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni so‘raganimizda, ular nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zni qo‘yib, biz o‘rtaga tashlagan muammoni bartaraf eta oldilar. Ushbu interfaol metod o‘quvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini o‘ylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olishga katta yordam berdi. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim arayoniga tadbiq etishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsadlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

birinchidan, ta’lim tizimini jadallashtirish;

ikkinchidan, jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi jamiyatda har qanday axborotlarni o‘quvchilarga yetkazishda vaqtadan unumli foydalanish;

uchinchidan, bilim berishni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish va o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish;

to ‘rtinchidan, mustaqillik, erkin fikr, o‘zaro hamkorlik aloqalarini keng yo‘lga qo‘yish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tkazilgan har bir dars o‘quvchilarni erkin fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini bayon qilishga imkon yaratadi. Jamiyatimiz rivoji, barqarorligini ta’minlashda, eng avvalo, olingan axborotlarni mustaqil tahlil eta oladigan, erkin fikrlaydigan yoshlar zarur. Shuning uchun ham

o‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion usullar, texnologiyalarning o‘rnini va ahamiyati beqiyos. Pedagogik texnologiyalarni ta’limda qo‘llash o‘quvchilarning bilimli va yetuk malakali bo‘lishlarini ta’minlaydi. “Innovatsiya” inglizcha so‘z bo‘lib, “yangilik kiritish”, “yangilik” degan ma’nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik va o‘zgartirish kiritiladi va bu jarayon interfaol usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion pedagogik muammolar yechimini izlash ta’lim sohasida innovatsion jarayonning xususiyati, mazmuni, tarkibini tasniflash va tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonini boshqarish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi o‘z faoliyati va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish yo‘llarini, o‘quvchilar bilimini nazorat etish eng samarali usullarini ishlab chiqadi. Bu jarayonda interfaol usullardan foydalanishning, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun zamin bo‘ladi. Interfaol usullar zamirida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi yotadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchining dars jarayoniga loqaydligi, nofaolligining oldi olinadi va mustaqil fikrlash, ijod qilish, izlanishga jalb qilinadi, o‘quv jarayoniga, fanga bo‘lgan qiziqishlarining doimiyligi ta’minlanadi. Pedagogik texnologiyaning maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta’minlashdir. O‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishi mumkin. O‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlarini xulosa qila olsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yaratish olishi, o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarining innovatsion asosda tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirish, tilga hurmatni mustahkamlash, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘lidir. Har bir pedagog o‘z darslarini yangilashga intilsa, bu o‘z navbatida tilimiz ravnaqi va o‘quvchining shaxsiy yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. 120 b.
2. Turdiev Sh. Ta’limda innovatsion yondashuv. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. 184 b.
3. Karimova G. Zamonaviy dars va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 96 b.
4. Til o‘qitish metodikasi (Ona tili). Darslik. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
5. Turaboev O. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023. 146 b.
6. Maxmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. - Toshkent: 1995. 105 b.
7. UNESCO Report on Digital Literacy in Education, 2022.
8. www.quizlet.com, www.kahoot.com, www.wordwall.net – Raqamli ta’lim resurslari.

Referens:

1. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. 120 b.
2. Turdiev Sh. Ta’limda innovatsion yondashuv. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. 184 b.
3. Karimova G. Zamonaviy dars va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 96 b.

4. Til o‘qitish metodikasi (Ona tili). Darslik. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
5. Turaboev O. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023. 146 b.
6. Maxmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. - Toshkent: 1995. 105 b.
7. UNESCO Report on Digital Literacy in Education, 2022.
8. www.quizlet.com, www.kahoot.com, www.wordwall.net – Raqamli ta’lim resurslari.